



ERON TARIXSHUNOSLIGIDAGI TURONNING MEZOLIT DAVRIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI

Xojamberdiyev E. Sh.

Tarix institute mustaqil izlanuvchi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18998832>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 09-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 11-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 13- mart 2026 yil

KEY WORDS

qoyatosh suratlari, epipaleolit, mezolit, Shakti g'ori, Oq ko'prik makoni, Shugnov, Dam-dam chashma 2, Keyli, Oshxona, Obishir, Zagros, Komishon, Alitepa, Levant.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Turonning mezolit davriga oid zamonaviy Eron tarixshunosligidagi ilmiy yondashuv va qarashlar, xususan, qoyatosh suratlari, epipaleolit va mezolit davrining o'ziga xos xususiyatlari, aholi xo'jaligi turi, migratsiyasi, yodgorliklar va tosh qurollar tavsifi kabi masalalardagi tadqiqotlarning qisqacha tahlili yoritilgan.

Turonning mezolit davriga oid tadqiqotlar Eronda sanoqli va nisbatan kamroq. Bu davrga oid umumiy ko'rinishdagi qaydlar asosan, Parviz Varjovand, Mujgon Joyiz, Seyid Sajjodiy Ali Akbar Vahdotiy Nasab kabi arxeologlarning ishlarida ko'zga tashlanadi [1:16; 2:127; 3:48]. Ushbu ishlarda qoyatosh suratlari, yodgorliklar tavsifi, tosh qurollar va ularning xususiyatlari, tarqalishi, aholi ko'chishlari hamda xo'jaligiga oid qisqa ma'lumot va fikrlar o'rin olgan.

Qoyatosh suratlari masalasi. Parviz Varjovand Termiz shahridan yuz kilometr sharqda joylashgan Bobotog' qoyalaridagi ikki yuzdan ortiq hayvon va inson rasmlariga e'tibor qaratadi. Rasmlarning oxrali rangi, yovvoyi echkilarni ta'qib qilayotgan, hayvon terisini yopingan ovchilar tasviriga o'ziga xos xususiyat sifatida baho beradi. A. Ranov tomonidan aniqlangan Pomir tog'laridagi Shakti g'ori rasmlarini esa mezolit davrining eng qadimgi san'at namunasi deb ko'rsatadi [3:128].

Tadqiqotchi g'or devorida aks etgan qush timsolidagi ovchilarni shomonlik dinining ilk ildizlari sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, insonning qush shaklidagi tasviri mezolit davri Turon odamlarining e'tiqodi va tabiiy tasavvurlari bilan bog'liq. Qush erkin ruh va osmon bilan aloqadorlik ramzi hisoblangan [3:128].

A. Ranov ushbu odam-qushlar tasviriga nisbatan diniy tasavvur belgisi sifatida yondashmagan. Lekin, mazkur qushlar tuyaqush ekani va uning tuxumlari odamlar tomonidan iste'mol qilinganini ta'kidlagan [4:73].

Ma'lumki, qadimgi odamlarda o'zlari uchun ozuqa hisoblangan jonzotlarni ilohiylashtirish tabiiy hol bo'lgan. Shu sabab Parviz Varjovandning qush-odam timsolini diniy tasavvur bilan bog'lashi mantiqan to'g'ri deyish mumkin.

Turonda epipaleolit va mezolit davrining o'ziga xos xususiyatlari masalasi. Mazkur masalaga arxeolog Seyid Sajjodiy ko'proq e'tibor qaratgan. Tadqiqotchi Turonda paleolitdan neolitga o'tish bosqichini tosh qurollar shakli va tarqalgan hududlari kesimida ikki bosqichga,

ya'ni, epipaleolit va mezolitga ajratadi. Bu ikki davrning farqli xususiyatlarini Afg'oniston shimolidagi Oq ko'prik makoni misolida ko'rsatishga harakat qiladi [3:49]. Oq ko'prikni eng muhim va ko'p o'rganilgan epipaleolit davri yodgorligi sifatida qayd etadi. Yodgorlik topilmalari, ayniqsa, geometrik ko'rinishga ega bo'lmagan tosh qurollarni epipaleolitning o'ziga xos xususiyati sifatida baholaydi. Muallif ushbu makonning eng qadimgi davriy chegarasini miloddan oldingi 17-ming yillik bilan belgilagan. Bunda R. Devisning epipaleolit bosqichi 10-ming yillikdan qadimiyroq ekani haqidagi fikriga tayangan [5:188].

Shuningdek, Dam-dam chashma, Qorakamar makonlari tahliliga tayanib, Turonda epipaleolit va mezolitga oid tosh qurollar bir vaqtda amalda bo'lganini tasdiqlagan [3:50]. Turonning ayrim hududlarida mezolit bosqichining asosiy belgisi geometrik mikrolitlar bo'lsa, boshqa hududlardagi geometrik xususiyatga ega bo'lmagan tosh qurollarni epipaleolit bilan bog'lagan.

Seyid Sajjodiy Shugnov va Dam-dam chashma 2 makonlarining yuqori qatlamida uchragan geometrik turga kirmaydigan tosh qurollarni epipaleolit va quyi paleolit o'rtasidagi uzviylik belgisi sifatida ko'rsatadi. Payg'ambartepa va Oshxona kabi epipaleolit makonlarida geometrik tosh qurollarning yo'qligi sabab ularni mezolit doirasida ko'rsatish noto'g'riligini ta'kidlaydi [3:152].

Shunga o'xshash fikrlarni sovet arxeologi A. P. Okladnikov tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. A. P. Okladnikov mezolit davriga oid Keyli, Oshxona kabi bir nechta makonlarda so'nggi paleolit uslubidagi tosh qurollardan foydalanish davom etganini ta'kidlagan [6:222]. Shuningdek, epipaleolit davrini umumiy shaklda so'nggi paleolitning tugashi va mezolitning boshlanishi oralig'ida belgilagan. Olim mezolit tushunchasi ko'proq Yevropa mintaqasiga xosligini ta'kidlab, Sharqqa, xususan, Turonga nisbatan ushbu atama o'rniga "epipaleolit davri" iborasini qo'llash to'g'ri degan fikrni bildirgan [6:223].

A. Ranov, S. Devislar ham so'nggi paleolitga xos geometrik turga kirmaydigan tosh qurollar va geometrik mikrolitlar kesimida epipaleolit hamda mezolitga nisbatan alohida tushunchalar sifatida yondashganlar [5:190].

Ta'kidlash joyizki, milliy tadqiqotlarda epipaleolit va mezolit tushunchalari bir o'rinda qo'llanadi. Odatda, mezolit atamasidan keng foydalaniladi [5:191]. Shu jihatdan, Eron, sovet va G'arb arxeologlarining yuqoridagi qarashlaridan kelib chiqib, milliy tarixshunoslikda epipaleolit bosqichini alohida qayd etish masalasi ochiq qolayotganligi ko'rinadi.

Mezolit davri xo'jaligiga oid qarashlar. Seyid Sajjodiy Jabal va Dam-dam chashma g'orlarida mezolitning boshi, ya'ni, miloddan oldingi 10 - 7-ming yilliklarda mavsumiy ovchilar yashaganligi to'g'risidagi qarashlarni tasdiqlaydi. Bu g'orlar aholisi tomonidan ovlangan echki, qo'y kabi hayvon turlari orasida eng kichigi jayron bo'lganini qayd etadi. Ushbu jayronlar Eronda keng tarqalgan turga mansub deya talqin qiladi [3:52]. Shuningdek, Keyli g'ori misolida Turon jamoalarining xo'jaligida shakllangan tikuvchilikning ilk ko'rinishiga ham to'xtalgan. Mazkur g'orning dastlabki qatlamlarida aniqlangan ko'zsimon teshikli suyak igna kiyim tikishda va terini qayta ilashda qo'llanganini tasdiqlagan [3:64].

Seyid Sajjodiy fikricha, Turonning pleystotsen davridan golotsenga o'tishdagi iqlim o'zgarishlari va ularning inson jamoalariga ta'siri hali to'liq o'rganilmagan. Bu borada sovet olimlarining qarashlarida yakdillik yo'qligi ham masalani o'rganishdagi muammolardan biri bo'lgan [3:63].

Ushbu fikr tasdig'ini sovet tadqiqotlarida yaqqol ko'rish mumkin [7: 45]. Jumladan, V. A. Ranovning mezolit davrida Turonda sodir bo'lgan iqlim o'zgarishlariga oid qarashlari O. Agaxanyats tomonidan tanqidiy baholangan [8:203]. Bu holat masalani maxsus yoritgan deyarli barcha sovet arxeologlari misolida kuzatiladi. Ta'kidlash joyizki, ubu muammo bugungi kunda ham o'z yechimini kutmoqda [9:88].

Mujgon Joyiz mezolit davridagi Turonning tosh qurollar yasash uslubi Eron hududlariga kirib kelishiga to'xtalib o'tadi. Uning fikricha, mezolit davri tosh sanoati uslublarining tarqalishi aholi ko'chishlari bilan bog'liq.

Shuningdek, Tojikistondan Kaspiyning janubi-sharqigacha bo'lgan hududdagi mikrolit yasash an'anasining tarqalish doirasi aslida ancha kengroq. Muallif Kaspiyning janubi-sharqiy mintaqasida Turonga xos mikrolitlarning topilishini Turon jamoalarining Eronga siljishi bilan bog'laydi. Shu bilan birga bugunga qadar bunday tosh qurollarning g'arbiy markazi Tojikiston bilan chegaralab kelinganini ta'kidlagan. Aslida esa bu mikrolitlarning Eron markazi, hatto, Zagrosga qadar kirib borganini ushbu mikrolitlarning Mozandarondagi Komishon va Alitepa g'orlarida ham aniqlanishi bilan asoslagan. Ushbu ko'chish yo'nalishini xaritada aks ettirib, uning markaziy nuqtasi sifatida O'zbekistondagi Obishir makonini ko'rsatgan [1:72].

Ta'kidlash lozimki, Mujgon Joyiz aynan bir masalada davrlar kesimida ikki xil qarashni ilgari suradi. Ya'ni, paleolit davri tosh qurollar xususiyatlarini tub xususiyat bilan bog'lagan bo'lsa, mezolit davriga nisbatan buning aksini ya'ni tashqi ta'sirlar bilan bog'laydi.

Biroq, sovet davri tadqiqotlarida buning aksi talqin qilingan. Ya'ni Turonda mezolit madaniyatining shakllanishi Levant va Zagros hududidagi jamoalarning kirib kelishi bilan bog'langan [4:78,79].

Sovet olimlarining mazkur fikrlari G'arb arxeologi S. Shnayder tomonidan so'nggi o'n yillikdagi tadqiqotlar tahlili asosida inkor etildi. Unga ko'ra, Turondagi Tutkaul, Obi Kiyik makonlariga oid geometrik shakldagi mikrolitlar mintaqada tub an'analar asosidagi o'ziga xos tosh sanoati uslubi natijasidir [10:58].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mojgan Jayez. Izeh tekisligi tosh sanoatida tor yuzali yonlama nukleuslarning tahlili: so'nggi pleystotsen davridagi demografik tarqalish modellari va madaniy o'zaro ta'sirlarga nazar // Ilmiy-tadqiqot choraklik jurnali. – Tehron. 1399 (2020). – 2-son. – B. 16-34.
2. پرویز ورجاوند. نگاهی به پیشینه چگونگی و ارزش بررسیهای و کاوشهای باستانشناسی در آسیای میانه. فرهنگ و زندگی. تهران. ۱۳۵۷. ص. ۱۲۷.
3. سید منصور سید سجادی. باستانشناسی آسیای مرکزی. جلد اول. تهران. ۱۳۹۴. ص. ۴۸.
4. Р а н о в В. А. Рисунки каменного века в гроте Шахты // Советская этнография. – 1961. – Вып. 6. – С. 70–81.
5. Davis R. S. and Ranov V. A. Recent work on the Paleolithic of Central Asia. // Evolutionary Anthropology: Issues News and Reviews. – 1999. – № 8/5. – P. 186–193.
6. О к л а д н и к о в А. П. К вопросу о мезолите и эппалеолите в азиатской части СССР. // Материалы и исследования по археологии СССР. – Москва: Наука, 1966. – С. 213-223.
7. Л и с и ц и н а Г. Н. Культурные растения Ближнего Востока и Юга Средней Азии в VII-V тысячелетях до н.э. // Советская археология. – 1970. – № 3. – С. 43-56.

8. А г а х а н ь я ц О. Э. Основные проблемы физической географии Памира. – Душанбе. 1965. – С. 239.
9. С о р о к и н А. Н. Мезолитоведение Поочья в вопросах и ответах // Труды Всероссийского археологического съезда. – 2008. – Том 1. – Москва. – С.-88-90.
10. Шнайдер. С. В. Генезис мезолита на территории Памиро-Алая. // IV Северный археологический конгресс. – Ханты-Мансийск. – 2015 13-24 октября. – С.- 58-59.

